XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-mart VI-43-34-1-18-K/24 Baliqchi tumani

Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 2023 yil 28 dekabrdagi VI-41-82-1-18-K/23 sonli ”2024 yil uchun Baliqchi tumanining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 17-qismini bekor qilish to‘g‘risida

Baliqchi tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024 yil 2 fevral kunidagi 59-sonli xatiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining 2024 yil 16 fevral kuni 05-25-raqamli xatiga muvofiq Baliqchi tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining mutaxassisi hamda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi mutaxassislari bilan birgalikda o‘rganish o‘tkazildi (Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024 yil 2 fevral kunidagi 59-sonli xati, o‘rganish ma’lumotnomasi va Baliqchi tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024 yil 19 fevral kunidagi 02/06-35/27-sonli ilova qilindi).

Baliqchi tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024 yil 19 fevral kunidagi 02/06-35/27-sonli xatiga va Baliqchi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024 yil 2 fevral kunidagi 59-sonli xatiga asosan xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 2023 yil 28 dekabrdagi VI-41-82-1-18-K/23 sonli ”2024 yil uchun Baliqchi tumanining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 17-qismini o‘zgartirib berish yoki bekor qilib berilishini so‘rab yozilgan xatlarini muhokama qilib O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6-, 19-, 24- moddalariga asosan Xalk deputatlari Baliqchi tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Baliqchi tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024 yil 19 fevral kunidagi 02/06-35/27-sonli xatiga va Baliqchi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024 yil 2 fevral kunidagi 59-sonli xatlari ma’lumot hamda asos uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 2023 yil 28 dekabrdagi VI-41-82-1-18-K/23 sonli ”2024 yil uchun Baliqchi tumanining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 17-bandi, ya’ni “Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Xakimova) tumandagi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida tarbiyalanayotgan 1 nafar bolalar uchun kunlik oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti me’yori 11000 (o‘n bir ming) so‘m qilib belgilansin” degan bandi to‘liq bekor qilinsin.

3. Baliqchi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (X.Maxammadjonov)ga:

- tumandagi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar uchun kunlik oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti me’yori byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshirilishini nazorat qilsin;

- oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan mablag‘larni to‘lash jarayonida asossiz qarzdorlik yuzaga kelishiga yo‘l qo‘yilmasligini nazoratini ta’minlasin;

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” va “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si zimasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror tasdiqlangan kunidan e’tiboran kuchga kiritilsin.

Kengash raisi ABDURAYIMOV JASURBEK ODILOVICH